

EKOLOGIYA O'ZGARISHLARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Ma'mun universiteti iqtisodiyot kafedrası

PhD Niyozmetov Doniyor

Ma'mun Universiteti 24/7-guruh talabasi

Rustamova Fazilat Xushdudbek qizi

Annotatsiya: Ushbu tezisda ekologik o'zgarishlarning iqtisodiyotga ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'siri tahlil qilinadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muammolarning kuchayishi ishlab chiqarish samaradorligi, aholi salomatligi, bandlik hamda davlat xarajatlariga ta'sir ko'rsatishi yoritib beriladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Karit so'zlar: Ekologiya, iqlim o'zgarishi, iqtisodiyot, tabiiy resurslar, atrof-muhit ifloslanishi, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot.

Asosiy qism

Bugungi kunda turli xil kasalliklarni kelib chiqishi ekologiyaga borib taqaladi. Shu sababdan unga yechim topish va ekologiya buzulishini oldini olish maqsadida O'zbekistonda "Yashil iqtisodiyot" boyicha kansepsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Ushbu tezisda ekologik o'zgarishlarning iqtisodiyotga ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'siri tahlil qilinadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muammolarning kuchayishi ishlab chiqarish samaradorligi, aholi salomatligi, bandlik hamda davlat xarajatlariga ta'sir ko'rsatishi yoritib beriladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirishga qaratilgan iqtisodiyot modeli bo'lib, u tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-

muhitga zarar yetkazmaslikni maqsad qiladi. Yashil iqtisodiyot quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

- 1.Yashil energetika
- 2.Barqaror qishloq xo'jaligi
- 3.Ekologik transport
- 4.Yashil qurilish
- 5.Atrof-muhitni muhofaza qilish
- 6.Barqaror turizm
- 7.Suv va chiqindilarni boshqarish

Yashil iqtisodiyotga quyidagilar misol boladi:

1. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari:

Quyosh panellari va shamol elektrostansiyalari: Masalan, Samarqand yoki Navoiyda quyosh elektrostansiyalarining ishga tushirilishi. Ushbu loyihalar tabiiy gaz va ko'mirga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi.

2. Barqaror transport tizimlari:

Elektr transport vositalari: Toshkent shahrida elektr avtobuslarning joriy etilishi. Bunday transport vositalari karbonat chiqindilarni kamaytirishga xizmat qiladi.

3. Chiqindilarni qayta ishlash:

Toshkent va boshqa shaharlardagi chiqindilarni qayta ishlash zavodlari: Bu zavodlar plastmassa, shisha va boshqa chiqindilarni qayta ishlash orqali yangi mahsulotlar yaratadi.

4. Barqaror qishloq xo'jaligi:

Ekologik toza usullar bilan paxta yoki bug'doy yetishtirish. Masalan, kimyoviy o'g'itlardan foydalanishni kamaytirish va tomchilatib sug'orish texnologiyalarini qo'llash.

5. Ekologik turizm:

Sayohat markazlari: Chorvoq yoki Surxondaryoda ekologik turizmni rivojlantirish, ya'ni mehmonxonalar va turistik obyektlarda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish.

Ushbu misollar yashil iqtisodiyotning nafaqat ekologiyani, balki iqtisodiyotni ham barqaror rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Bular orqali energiya tejilishi, atrof-muhitni muhofaza qilish va yashash sharoitlarini yaxshilashga erishiladi.

Hozirgi kunda asosiy muommolardan biri bu ekologiyani ifloslanishidir. Ekologiyaning ifloslanishi – bu tabiatga zarar yetkazuvchi moddalar va jarayonlar natijasida ekologik tizimlarning muvozanatini buzilishidir. Bunda insonning sanoat, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa faoliyatlari asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ifloslanish bir necha turga bo'linadi:

Ekologiya ifloslanishining asosiy turlari

1. Havoning ifloslanishi:

- zavod va fabrikalardan chiqayotgan zararli gazlar (masalan, karbonat anhidrid, metan va azot oksidlari);
- transport vositalaridan ajralayotgan tutun va chiqindilar;
- o'rmonlarning kesilishi va changli bo'ronlar.

2. Suvning ifloslanishi:

- kanalizatsiya suvlarining daryolar va ko'llarga oqizilishi;
- sanoat chiqindilari va kimyoviy o'g'itlarning suv havzalari bilan aralashishi;
- neft to'kilishi va dengizlarda biologik hayotning zararlanishi.

3. Tuproqning ifloslanishi:

- kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlarning ortiqcha ishlatilishi;
- plastik va boshqa biologik parchalanmaydigan chiqindilar;
- og'ir metallar va zaharli moddalar bilan tuproqning ifloslanishi.

4. Radioaktiv ifloslanish:

- Atom elektr stansiyalari avariylari;
- Radioaktiv chiqindilarning noto'g'ri saqlanishi;
- Harbiy sinovlar natijasida radioaktiv moddalarning tarqalishi.

5. Shovqin ifloslanishi.

-transport vositalari, sanoat texnikasi va qurilish ishlaridan hosil bo'lgan yuqori shovqin;

-shaharlar va aeroportlar atrofidagi shovqinlar;

-ifloslanishning oqibatlari;

-ozon qatlamining yemirilishi;

-iqlim o'zgarishi va global isish;

-bioxilma-xillikning yo'qolishi;

-suv va oziq-ovqat resurslarining tanqisligi;

-inson salomatligiga salbiy ta'sir (allergiya, nafas olish kasalliklari va boshqalar);

Xulosa

Xulosa qilib aytganda ekologiyani himoya qilish choralari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza texnologiyalardan foydalanish.
2. Daraxtlar ekish va o'rmonlarni asrab-avaylash.
3. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish (quyosh, shamol, suv).
4. Ozon qatlamini saqlashga qaratilgan qonun-qoidalarni ishlab chiqish.
5. Aholining ekologik madaniyatini oshirish.

Tabiatni muhofaza qilish har bir insonning burchi bo'lib, bu jarayonda har birimiz o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odum, E.P. (1983). "Ekologiya asoslari". Toshkent: Fan.
2. Glazovskiy, N.F. (1988). "Tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolar". Moskva: Vysshaya Shkola.
3. Molchanov, I.G. (1992). "Atrof-muhitni ifloslanishidan himoya qilish texnologiyalari". Moskva: Ekologiya.
4. Milliy ensiklopediya (2000). "Ekologik xavfsizlik bo'yicha dolzarb masalalar". Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.